МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

№ 6/1 2024

гуманитарные науки
естественные науки
технические науки

ISSN 2181-7138

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

Илимий-методикалық журнал

2024

6/1-сан

Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды

Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.

Нөкис

Mirzayeva L.E. Umumta'lim maktablari geografiya ta'limida mediata'lim resurslaridan foydalanishning pedagogik asoslari 118
Haytbayeva S. R. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik jihatlari 122
Ismoilova D. M. Sinf rahbari o'quvchilarning birinchi tarbiyachisi va murabbiysi 125
Mamatova A.M. Yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy tarbiya texnologiyalari zaruriyati 128
Jabborova O. M., Matupayeva Sh. Z. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda raqamli didaktikaning ahamiyati 131
Mamatova A.M. Tarbiya pedagogikasi xususiyatlari 133
Kurbanov O.E. Magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning konseptual asoslari 136
Нургизарова З.Б. Мактаб раҳбарининг тарбиявий ишларни бошқаришдаги роли 140
Abdumalikov A.I. Mehnat tarbiyasi – ma'naviy tarbiyaning negizi 144
Musoyeva A.B. The perspectives of future professionals on improving their research skills through academic writing 148
Тожибоева Г.Р. Понятие и задачи педагогической диагностики в начальной школе 156
Jabborova O.M., Toshtemirova D.D. Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini o'qitishning zamonaviy yondashuvlari 159

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Rakhimova G.S., Rasulov M.A., Yakubov K.N. Ўзбекистон ССРда табиатни мухофаза қилишдаги қонунларнинг аҳамияти 163

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Mashrabjonov U. Mental arifmetikaning rivojlanish bosqichlari 167
Xurramov O.Sh. Matritsalarni kriptografiyadagi tatbiqlari 172
Abduqodirova P.T., Ibaydullayev D. Interfaol usullar bilan python dasturlash tilinini o'qitish 174
Ismoilov U. Fizika fanini o'qitishda stem yondashuvi va uning asosiy tamoyillari hamda komponentlari 177
Egamnazarova S.X. Kompyuter grafikasi fanlarini o'qitish istiqbollari 180
Ismoilov E.O. Differensial tenglamalarni mathcad va maple dasturlaridan foydalanib o'qitish metodikasi 183
Nortojiyev A.M. FIzikani arxitektura va qurilish fanlariga integratsiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish 189
Jurayeva M.N., Abdiraxmonova R.E. Algebra fanini o'qitishda kontekstli topshiriqlardan foydalanish 194
Xakimova Yo.T. Informatika va axborot texnologiyalari darslarini 4 "K" modeli asosida o'qitish 197
Xurramov O. Funksiyalar va ularning turli sohalardagi tatbiqlari mavzusini yoritishda klaster metodidan foydalanish imkoniyatlari va ahamiyati 202

1) kompyuterli dastur asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari “Musiqa madaniyati” o‘quv fani darsliklarining tahlili asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda amaliy imkoniyatlarni ishlab chiqish;

2) bo‘lajak o‘qituvchilarning milliy musiqa merosi va jahon xalqlari musiqa merosining eng muhim didaktik asoslari bilan qurollantiruvchi tizimni mazkur kompyuterli dasturda tizimlashtirish;

3) bo‘lajak o‘qituvchilarni bolalar musiqa san’ati, ya’ni bolalar musiqasi, qo‘shiqchilik va raqsi ijrochiligi asoslari bilan tanishtiruvchi metodik majmualarni ifodalash;

4) bo‘lajak o‘qituvchilarning nota savodxonligini rivojlantiruvchi va ularning mazkur kompyuterli dastur asosida masofadan turib o‘qitish jarayonini amalga oshirish kasbiy ko‘nikmalarini tarkib toptirish hamda ushbu raqamli didaktikadan foydalanish mexanizmlarini taqdim etish.

Bunday maxsus yondashuv va dastur asosida ishlab chiqiladigan raqamli didaktikaga asosan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash imkoniyatlari kengayadi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning bu kabi raqamli didaktika asosida masofadan turib musiqiy ta’lim va tarbiya jarayonini amalga oshirish hamda o‘z malakalarini rivojlantirib borish bo‘yicha muhim mexanizmlarga ega bo‘linadi[4:7].

E’tibor berilsa, raqamli didaktika va uning yo‘nalishlari bo‘yicha ishlab chiqiladigan kompyuterli texnologiyalarning nazariy, metodik va amaliy ahamiyati muhimdir. Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning turli variativ namunalarini yaratish va ulardan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib jamiyatimizning hozirgi rivojlanish sharoitida quyidagilar muhim pedagogik vazifalar bo‘lib turganligini eslatib o‘tish bilan cheklanamiz:

birinchidan, oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha turli raqamli didaktikalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi;

ikkinchidan, bunday raqamli didaktikalarni ishlab chiqishda ta’lim yo‘nalishlarining asoslari qat’iy hisobga olinishi kutilgan samarani beradi;

uchinchidan, mana shunday yondashuv asosida ishlab chiqilgan raqamli didaktikalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarlik imkoniyatlarini bugungi kun talablari darajasida kengaytirish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi. // www.lex.uz

2. Mardonov Sh. Pedagogika fanidan o‘qitishning elektron-modulli didaktik ta’minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021

3. Jabborova O., Tashpulatova D. ART texnologiya va kreativlik. – Toshkent, 2022

TARBIYA PEDAGOGIKASI XUSUSIYATLARI

Mamatova A.M.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchi

Tayanch so’zlar: tarbiya pedagogikasi, xususiyat va o‘ziga xoslik, nazariya va didaktika, tarbiya va ta’lim, tarbiya va amaliyot.

Ключевые слова: педагогика воспитания, особенность и специфика, теория и дидактика, воспитание и образование, воспитание и практика.

Key words: pedagogy of education, peculiarity and specificity, theory and didactics, upbringing and education, upbringing and practice.

РЕЗЮМЕ

Maqolada Tarbiya pedagogikasi fanining xususiyatlari, uning o‘ziga xosliklari va ob’yektlari to‘g‘risida fikr yuritilgan, mazkur masalalar bo‘yicha mualliflarning yondashuvlari taqdim etilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье рассмотрены особенности науки педагогики воспитания, ее специфика и объекты, представлены подходы авторов по данным вопросам.

SUMMARY

The article examines the features of the science of pedagogy of education, its specifics and objects, and presents the authors' approaches to these issues.

"O'zbekiston-2030" strategiyasining ijrosining ta'minlash jarayonida ta'lim tizimida amalda bo'lgan va tarixiy-tajribadan o'tib kelayotgan fanlarni takomillashtirish masalalari ham muhim o'rin tutadi[1]. Shu ma'noda mamlakatimizda fanlar tipologiyasini takomillashtirish va ular vositasida ilm-fan, ta'lim hamda tarbiya jearayonini amalga oshirish vazifalari dolzarb bo'lib turibdi. Bu o'rinda ana shunday masalalardan biri Tarbiya pedagogikasi fanining o'ziga xos xususiyatlari taxliliga e'tiboringizni tortamiz.

Tarbiya pedagogikasi – fan sifatida. O'zbekiston pedagogik ta'lim va tarbiya tajribasida muayyan fanlarning tipologik takomillashuvi keyingi besh yil davomida muhim hodisa sifatida davom etmoqda. Shu jihatdan Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan pedagogikamiz taraqqiyotida ilk bor Tarbiya o'quv fani shakllantirilib, amaliyotga joriy etildi[2]. Mazkur tajriba tadriji davomida bugungi kunga kelib yangi Tarbiya pedagogikasi fani idrok etilmoqda. Tarbiya pedagogikasi yangi fan sifatida quyidagilarni qamrab olishini alohida eslatib o'tish joiz:

1) fanning me'yoriy asoslari;
2) fanning nazariyasi;
3) fanning didaktikasi;
4) fanning metodologiyasi.

Mazkur asoslarga binoan bugungi kunda mamlakatimizda Tarbiya pedagogikasi fani tarkib topganligini e'tiroya etish lozim. Shu sababli mazkur asoslarni ilmiy-nazariy va amaliy metodik jihatdan taxlil qilish dolzarb bo'lib turibdi.

Tarbiya pedagogikasi fanining me'yoriy asoslarini uning mazmuni, huquqiy tayanchlari va ilmiy omillari tashkil qiladi. Bu masalalar batafsil taxlil qilinishi natijasida fanning aniq va asoslangan me'yoriy asoslari belgilab olinadi. Mazkur masalalar bo'yicha pedagog olimlar va amaliyotchi o'qituvchilarning yakdil yondashuvlarini shakllantirib olish dolzarb bo'lib turibdi. Bu borada mamlakatimizda "Tarbiya" o'quv fani bo'yicha to'plangan milliy tajribaning yutuqlariga asoslanish bizningcha, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu o'rinda eslatib o'tish joizki, tarbiya pedagogikasining nazariyasi, didaktikasi va metodologiyasi masalalari ishlab chiqilishi zaruriyat hisoblanadi.

Tarbiya pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlari. Yangi Tarbiya pedagogikasi fani o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish Tarbiya pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlarini idrok etish imkonini beradi:

1) Yangi O'zbekiston jamiyatida tarbiya g'oyasi;
2) tarbiya nazariyasining innovasion va zamonaviy asoslari;
3) zamonaviy tarbiya nazariyasining xorijiy tajribalari;
4) "Tarbiya ta'limi nazariyasi" masalalari;
5) tarbiya ta'limi innovatsiyasi;
6) tarbiya ta'limi tajribasi.

Mazkur xususiyatlar Tarbiya pedagogikasining negizini belgiliaydi.Shu sababli ushbu masalalar bo'yicha ham tadqiqot ishlarini yaratish muhim vazifakardan bo'lib turibdi.

Tarbiya pedagogikasining Yangi O'zbekiston jamiyatidagi tarbiya g'oyasi ham yangi tushunchalar ham,yondashuvlar va mazmunga asoslanishi kerak.Unga ko'ra,milliylikdan umuminsoniylik sari g'oyasining qabul qilinishi va bu g'oyaning tarkibi belgilab olinishi kerak.

Tarbiya pedagogikasining tarbiya nazariyasidan innovasion va zamonaviy asoslarni belgilab olish muhimdir.Unga ko'ra,milliy tarbiya g'oyasiga asoslanish shaxsni milliy qobiq iskanjasida qoldirmasligi yoki umuminsoniy tarbiya g'oyasiga asoslanish shaxsni milliy tarbiya negizlaridan begonalashtirmasligi kerak.

Tarbiya pedagogikasining zamonaviy tarbiya nazariyasidan xorijiy mamlakatlar tajribasi bo'yicha modellashtirilgan fikrlarga kelish maqsadga muvofiq bo'ladi.Unga ko'ra,asosiy e'tibor AQSH, Buyuk Britaniya,Germaniya kabi mamlakatlarning milliy tarbiya vositasida shaxsni

umuminsoniy tarbiya qadriyatlariga sadoqat ruhida tarbiyalash bo‘yicha tajribalarini o‘rganish va uning yutuqlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiya pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri uning ta’lim nazariyasidir. Unga ko‘ra, tarbiya ta’limini amalga oshirish, tarbiyani o‘qitish vositasida shaxsda tarkib toptirish va tarbiya ta’limining nazariyadan amaliyotga bog‘liqlik mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu sababli mazkur masala bo‘yicha ham yangi tadqiqotlarni yaratish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Tarbiya pedagogikasining muhim xususiyatlaridan biri tarbiya ta’limi asoslaniladigan innovatsiyadir. Unga ko‘ra, tarbiya ta’limini amalga oshirish jarayonida o‘qitishning yangi innovatsiyalari – raqamli, kompyuterli, axborot-kommunikasion, individual texnik kabi innovasion o‘qitish shaklariga asoslanishning mexanizmlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bunda tarbiya ta’limi nazariyadan amaliyotga yoki amaliyotdan nazariyaga yondashuvlari asosida tashkil qilinishi tarbiya ta’limiga nisbatan butunlay yangi munosabatlar majmuini yuzaga keltirishini eslatib o‘tish lozim.

Tarbiya pedagogikaschining muhim xususiyatlaridan biri tarbiya ta’dlimi tajribasidir. Unga ko‘ra, mamlakatimizda tarkib topgan tarbiyali o‘qitish va ta’lim jarayonida tarpbiyalash konteksti, xorijiy mamlakatlarning bevosita individual ta’lim asosida tarbiyani amalga oshirish konteksti tajribalari o‘rganilishi, ulardan foydalanishning uyg‘un metodikasi ishlab chiqilishi hamda tarbiyalanayotgan shaxsning bilim va fazilatlari uyg‘unligini baholashga erishish omillarini yaratish muhim ahamiyatga egadir.

E’tibor berilsa, Tarbiya pedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari nazariy, fundamental va ilmiy-metodik jihatdan tadqiq etilishi bugungi kundagi muhim pedagogik vazifalardan biri bo‘lib turibdi. Bunda Tarbiyaning ma’no-mazmuni tubdan o‘zgaradi. Unga ko‘ra, pedagogik olimlar tomonidan e’tirof etib kelinayotganidek, avval tarbiya, keyin ta’lim tashkil topgan tamoyili ilk rejaga chiqadi[3]. Mazkur tamoyilning mazmuniga ko‘ra, insoniyat tamaddunida avvalo tarbiya yuzaga kelgan bo‘lib, unda katta yoshlilar tomonidan bolalar yashash, muhit hamda o‘zini anglash ko‘nikmalariga moslashtirilgan, bu o‘ziga xos tarbiya bo‘lib, u keyinchalik ta’limning paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan. Unda ta’lim tarbiyaning asoslari va ko‘nikmalarini tarbiyalanuvchilarga tushuntirgan. Mana shu pedagogik tajriba bugungi kunda mamlakatimizda qaytadan tiklanganligini qayd etish lozim. Shu jihatdan bugungi kunda Tarbiya pedagogikasida aynan tarbiyaning ta’limiy asoslari idrok etilishi va tadqiq etilishi birlamchi vazifalardan hisoblanadi.

O‘tgan asrning o‘rtalaridan boshlab mamlakatimiz ta’lim tizimida bilim berish ustuvor darajada qabul qilinib, bunda ta’limning tarbiyadan ustuvorligi o‘z ifodasini topdi. Natijada avval bilim, keyin tarbiya tamoyili kelib chiqdi. Bu o‘z vaqtida ta’lim jarayonida tarbiyalash, tarbiyaviy tadbirlar vositasida tarbiyalash, individual tarbiyalash konseptlarining paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. Shu ma’noda bundan keyin Tarbiya pedagogikasi negizida tarbiyadan ta’limga yondashuvi tarkib topishi idrok etilmoqda. Shu jihatdjan tarbiyada ta’lim, tarbiya vositasida o‘qitish, tarbiyaviy tadbirlarda bilim va ko‘nikmalarga yo‘naltirish, tarbiyalanganlik darajasi asosida bilim va ko‘nikmalarning ko‘rsatkichlarini baholash yondashuvlari ustuvor darajada ifodalanib boradi. Bularning barchasi Tarbiya pedagogikasining o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Tarbiya pedagogikasining metodologiyasi. Tarbiya pedagogikasi me’yoriy asoslar, nazariya va didaktik omillar tayanchlariga ega bo‘lgan holda, uning o‘ziga xos metodologiyasi tarkib toptiriladi. Bu metodologiyada quyidagi yondashuvlarning ustuvor bo‘lishi idrok etilmoqda:

1) “Maktab-oila bog‘liqligi” metodi;
2) “Maktab-mahalla hamkorligi” metodi;
3) “Ta’lim jarayonida tarbiya” metodi;
4) “Tarbiya jarayonida ta’lim” metodi;
5) “Tarbiya texnologiyalari” metodi.

Bu metodlar mamlakatimizda Tarbiya pedagogikasining amaliyotga yo‘naltirilgan metodologiyaga asoslanishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan tarbiya mazmunining ko‘lami kengayadi va u pedagogik masalalarning birlamchi asosi sifatida qabul qilinadi. Shu ma’noda mazkur metodlar bo‘yicha yangi ilmiy, nazariy va metodik ishlanmalarni yaratish dolzarb bo‘lib turibdi. Misol

uchun, “tarbiya jarayonida ta’lim” metodiga ko‘ra, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish tadbirlari va ta’limi jarayonida shaxs tarbiyalanadi. Bunda taryubiya bevosita ta’limga asos bo‘luvchi vazifani bajaradi. Umuman olganda mazkur metod shaxs tarbiyasidan uning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘tish tadrijini bajaradi.

E’tibor berilsa, Tarbiya pedagogikasining metodologiyasi nisbatan hozirgi zamon talablari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli Pedagogika fanimizda Tarbiya konseptini qaytadan idrok etish, uning ko‘lamini belgilab olish va shaxsda shakllantiriladigan tarbiyaviy fazilatlarning indikatorlarini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada milliy pedagogik tajriba, xorijiy pedagogik an’analarning yutuqlari o‘rganilgani holda, masalaga butunlay yangicha yondashish va qo‘yilgan muammolarni zamonaviy talablar asosida innovasion yechimlarini topishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tarbiya pedagogikasi ta’lim va tarbiya jarayonimiz uchun mutlaqo yangi hodisa emas. Unda faqat tarbiyaning mazmuni, maqsad-muddaolari va vazifalari korreksiyalanib, yondashuvlar yangilanadi va tarbiya konseptining pedagogik ta’limda ustuvor qo‘yilishi amalga oshiriladi. Shu sababli bunday yondashuv bilan jamiyatimizda tarbiya masalasini butunlay yangilash, uning asoslarini Yangi O‘zbekiston g‘oyalariga moslashtirish, tarbiya jarayonidagi talab indikatorlarini qayta ko‘rib chiqish, shaxsni erkin tarbiyalashning me’yorlarini belgilash, shaxs va jamiyat tarbiya extiyojining hozirgi kundagi xolatlarini asoslash taqozo etiladi. Buning uchun mamlakatimiz pedagog olimlari va amaliyotchi pedagoglarning o‘zaro hamkorligi, yakdilligi hamda fundamental yondashuvga asosdlanishi hodisasi tarkib toptirilishi kerak. Shunda bugungi kunda kun tartiga qo‘yilayotgan Tarbiya pedagogikasi konseptining asoslari aniq idrok etiladi.

Kezi kelganda shuni ta’kidlash lozimki, Tarbiya pedagogikasining xorijiy mamlakatlar pedagogik ta’limotlarida o‘ziga xos ko‘rinish va shakllari uchraydi. Milliy pedagogikamizda ham tarbiyadan ta’limga borish tajribasi mavjud. Aynan mana shu hodisalarni qiyosiy taxlil qilish, Tarbiya pedagogikasining aniq ob’yekti va vazifalarini belgilab olish taqozo etiladi.

Shunday qilib jamiyatimizda Tarbiya pedjagogikasi ijtimoiy va pedagogik hodisais yangidan idrok etilmoqda. Bu borada amalga oshiriladigan tadqiqot ishlarining mushtaraklishgi hamda yondashuvlarning individualligi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Buning uchun mamlakatimiz oliy pedagogik ta’lim muassasalari va ilmiy pedagogik tadqiqot markazlari yagona yondashuv asosida tadqiqot ishlarini amalga oshirishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mazkur masala bo‘yicha ilmiy, nazariy va metodik tadqiqotlar majmuini yaratish bugunig kundagi eng muhim pedagogik vazifalar sirasiga kiradi.

Adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi // www.ziyonet.uz
2. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang‘ich ta’limda Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2022
3. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. – Sankt-Peterburg, 2001

MAGISTRATURA TALABALARINING TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Kurbanov O.E.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Magistratura bo'limi boshlig‘i

Tayanch so‘zlar: magistratura, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, ijtimoiy-gumanitar fanlar, tarix o‘qitish metodikasi, muammoga asoslangan o‘qitish, matematik tafakkur, tizimli fikrlash, mustaqil izlanish.

Ключевые слова: магистр, исследовательские навыки, социальные и гуманитарные науки, методика преподавания истории, проблемное обучение, математическое мышление, системное мышление, независимые исследования.

Key words: master, research skills, social sciences and humanities, methods of teaching history, problem-based learning, mathematical thinking, systems thinking, independent research.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada magistratura talabalarining tadqiqotchilik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan konseptual asoslar tahlil qilinadi. Unda ijtimoiy-gumanitar fanlar, xususan, tarix o‘qitish metodikasi misolida tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantirishning muhim jihatlari o‘rganiladi.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Кары Ниязий атындагы Озбекстан педагогикалык
илим-изертлеу институтыныц Ж. Орынбаев атындагы Каракалпакстан филиалы

«МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

Некие — 2024

Басып шыгыуга жууапкер:
А. Тилегенов, С. Нуржанов

Баспага таярлаган:
А. Тилегенов

Компьютер де таярлаган:
П. Реймбаев, З. Ниязымбетова

Мэнзил: Некие кутасы, Ерназар Алакез кешеси №54
Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34
e-mail: uzniipnkkj@umail. uz,
mugallim-pednauk@umail.uz
www. mugallim-uzliksiz-bilim. uz
mvw.KRTEACH.UZ

Журналга келген магалалларга жууап куштарылмайды, журналда жэрияланган макушалардан алынган узин дилер «Мугаллим уэм узликсиз билимлендириу» журна- лынан алынды, деп керсетилиуи шэрт. Журналга 5-6 бет келеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге кабыл етиледи. Макрлада келтирилген маглыуматларга автор жууапкер.

Оригинал-макеттен басыуга рухсат етилди 23.12.2024. Форматы 70x100V$_8$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шэртли б.т. 31. Нашр. т. Нускасы Буйыртпа №